



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI  
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING  
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 7 - yanvar

11-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-noyabrda “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlikni belgilash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-22-son hamda shu haqida viloyat hokimining 2021-yil 8-dekabrda 220-8-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida**

Fuqarolarni ortiqcha ovoragarchilik va byurokratik to‘siqlarsiz tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli hayot tarzini yuritish hamda o‘z huquqlari va salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni reabilitatsiya qilishga to‘g‘ri yo‘naltirish hamda tegishli chora-tadbirlar bilan qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-noyabrda “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati faoliyati hamda bolalarga nogironlikni belgilash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-22-son hamda shu haqida viloyat hokimining 2021-yil 8-dekabrda 220-8-0-Q/21-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Mazkur Qaror bilan:**

fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazish va nogironlikni belgilash tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilanganligi;

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasining pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tashkil etilganligi va shu munosabat bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining shifokorlari zimmasiga 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga

nogironlikni belgilash bo'yicha yuklatilgan qo'shimcha funksiyalar bekor qilinganligi;

pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining asosiy vazifalari belgilanganligi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarida hisobga olish va ko'rikdan o'tkazishning elektron axborot tizimini yaratish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

**3.** Shahar hokimining o'rinbosari K.Ashurov bir oy muddatda tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasini belgilangan talablarga javob beradigan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolar tashrifi uchun qulay bo'lgan binolar va xonalarda beg'araz asosda joylashtirish choralarini ko'rsin.

**4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o'rinbosari K.Ashurov zimmasiga yuklansin.

**Hokim**



**Xudayberdiyev I. B.**